

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
tomonidan ta’lim sifatini oshirish uchun tavsiya etilgan

“E’tirof” metodik tavsiyasi

Joriy vaqtda mamlakatimizda o‘qituvchi nufuzini oshirish, ta’lim sifatini oshirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Agarda rahbar va pedagog xodimlar o‘z lavozim vazifalarini to‘laqonli bajarib, islohotlarni amalga oshirishda tashabbuskorliklari, mas’uliyatlilik bilan astoydil harakat qilsa ishonamanki albatta ta’lim sifati oshishiga albatta erishiladi. Afsuski rahbar va pedagoglar orasida o‘z ishiga mas’uliyatsizlik bilan qarash hollari ham uchrab turadi. Meni taklifim ana shunday o‘z ishiga mas’uliyatsizlik bilan qarayotgan rahbar va pedagoglarni mas’uliyatini oshirishga qaratilgan.

“E’tirof” tadbirini amalga oshirish:

O‘qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ta’lim muvaffaqiyati va samarasi garovidir. Shunday ekan har bir o‘qituvchi darsga puxta tayyorlanib kelishi kerak. Lekin O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2020 yil 15 iyundagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo‘yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar” to‘g‘risidagi qarori bilan kundalik dars ishlanmalari daftari chiqarib tashlangandan keyin o‘qituvchilarni darsga tayyorgarligi biroz pasayganday, pedagoglarni darsga tayyorgarligini nazoratga olish ham qiyinlashdi.

Mazkur taklif etilayotgan “E’tirof” tadbiri o‘qituvchilarni darsga puxta tayyorlanib kelishlarini ta’minlaydi.

“E’tirof” tadbirini amalga oshirishdagi **vazifalar**:

- o‘qituvchini darsga puxta tayyorgarligi samarasini oshirish orqali ta’lim sifatini oshirish;
- ota-onalarni maktabda darslarni kuzatishga jalb etish orqali ta’lim sifatini oshirish;
- darslarni sifatli, zamon talablari asosida o‘tayotgan, o‘quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar orqali dars berayotgan o‘qituvchilarni maktab jamoasida va jamoatchilik oldida ma’nan rag‘batlantirib borish;

“E’tirof” tadbirini amalga oshirishdagi **maqsad** o‘qituvchini darsga puxta tayyorgarlik ko‘rib darsga kirishi orqali ta’lim sifatini oshirish.

“E’tirof” tadbirini quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich: “E’tirof” tadbiri to‘g‘risida sinf rahbarlari tomonidan sinf ota-onalar yig‘ilishlarida va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan maktab umumiy ota-onalar yig‘ilishida to‘liq tushuntiriladi. Sinf rahbarlari ota-onalar yig‘ilishida xar bir o‘quvchining otasi yoki onasini maktabga darslarni kuzatish uchun kela oladigan sanalarini aniqlab oladi. “E’tirof” tadbirini amalga oshirish tartibi maktabning ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar va kanallari orqali ham keng targ‘ibot qilinadi.

2-bosqich: “E’tirof” tadbirini amalga oshirish tartibi:

- Sinf rahbarlari ota-onalar yig‘ilishida aniqlangan darslarni kuzatishga kela oladigan vaqtlaridan taxminiy reja ishlab chiqadi. (*I-ilova*)
- Darslarni kuzatgan ota-onalarning fan o‘qituvchilari darsni o‘tish mahoratini e’tirof etib, bildirilgan ijobiy fikr va takliflarini “E’tirof daftari”ga qayd qilib boradi.

3-bosqich: “E’tirof” tadbiri taqdimoti:

- Har oyning oxirgi shanba (yoki jamoa bilan kelishib xaftaning boshqa) kuni umumiy ota-onalar yig‘ilishi o‘tkaziladi;
- Ushbu yig‘ilishda ota-onalarning fan o‘qituvchilariga nisbatan faqat ijobiy iliq fikrlari, taklif va tavsiyalari tinglanadi.

Tadbirning natijadorligi:

Har oyning oxirgi shanba (yoki jamoa bilan kelishib xaftaning boshqa) kuni o‘tkazilgan umumiy ota-onalar yig‘ilishida fan o‘qituvchilariga nisbatan bildirilgan faqat ijobiy iliq fikrlari, taklif va tavsiyalaridan pedagoglar ma’naviy rag‘bat oladi va bundan keyingi darslariga yanada puxta tayyorgarlik ko‘rishiga, o‘z ustida muntazam ishlashiga turtki bo‘ladi. Yaxshi sifatli dars o‘tayotgan pedagoglarning ota-onalar oldida obro‘yi, nufuzi oshadi. Natijada fan o‘qituvchilarining dars o‘tish sifati o‘z-o‘zidan yaxshilanadi.

Ushbu tavsiya Shovot tuman xalq ta’limi bo‘limi aniq fanlar metodisti Ulug‘bek Shermetovich Sobirov tomonidan ishlab chiqildi.